



IJTIMOY TARMOQ TURLARI VA IJTIMOY TARMOQ YOZISHMALARIGA NEYROLINGVISTIK YONDASHUV

Rahimqulova Lobar Hamro qizi

Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va
tillarni o'qitish kafedrası o'qituvchisi

Xolmurodova Shaxzoda G'ayrat qizi

Qarshi xalqaro universiteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15550134>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- May 2025 yil

Ma'qullandi: 28- May 2025 yil

Nashr qilindi: 30- May 2025 yil

KEY WORDS

*Ijtimoiy tarmoq, internet,
neyrolingvistika, facebook, google.*

ABSTRACT

Xo'sh, ijtimoiy tarmoq nima o'zi, uning qanday turlarini bilamiz? Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida etakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lgan sayt hisoblanib, bu saytlar har bir sohada yetakchilik qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda aks etayotgan yozishmalarni tahlil qilish ya'ni lingvistik ekspertiza qilish sud-huquq tizimida turli kriminalistik vaziyatlarni aniqlashda qo'l kelmoqda. Insoniyat ijtimoiy tarmoq, internet tarmoqlari bilan yaqindan tanishgani va ko'proq foydalangani sayin kriminalistik holatlar va turli ma'muriy jinoyatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'proq sodir etilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi globallashtirish davrida aloq o'rnatish, ish topish, uyushgan guruhlar harakatini muvofiqlashtirishda, iqtisodiy va siyosiy masalalarda birlamchi vosita vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi 1954-yilda paydo bo'lgan bo'lib, dastavval, bu tushuncha internetga bog'liq bo'lmagan. 1991-yilda internet atamasi paydo bo'lganidan so'ng ijtimoiy tarmoq tushunchasi internet atamasi bilan yonma-yon qo'llanila boshladi. Xalqaro ijtimoiy tarmoqlar dunyo bo'ylab tez fursatda muhim ahamiyat kasb etayotgan eng yosh saytlardan biriga aylanib ulgurdi. Xorijiy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq vaziyatlarni tez oson va ortiqcha ovvoragarchiliklarsiz hal etishda asosiy vosita vazifasini bajarmoqda. Bu holatning pirovardida vaqt va xarajatlar tejab qolinmoqda. Quyida xorijiy ijtimoiy tarmoqlarning bir qancha turlari bilan tanishib o'tamiz.

Facebook. 2004 yilda tashkil etilgan Facebook ijtimoiy tarmog'i bugungi kunda dunyodagi eng ommabop tarmoq hisoblanadi. Uning milliarddan ziyod foydalanuvchisi ro'yxatdan o'tgan.

Facebook-da ma'lum bir mavzu yoki mutaxassislik yo'q. U muloqot uchun, tarmoq tezkor qisqa xabarlarini almashish uchun mo'ljallangan internetdagi telegraf analogining bir turi.

Twitter. Ko'pgina tvitlar (Twitter-dagi xabarlar deb nomlangan) yangiliklar yoki nashrlarning kengaytirilgan versiyasidagi havolalarni o'z ichiga oladi va foydalanuvchi o'zi uchun nimani batafsil o'qishni o'zi tanlashi mumkin.

LinkedIn. Dunyodagi eng mashhur biznes va professional tarmoq. Boshqa ijtimoiy tarmoqlardan farqli o'laroq, LinkedIn birinchi navbatda ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish, ish beruvchilar, ishchilar, investorlar va sheriklarni topishga qaratilgan. LinkedIn profili aslida haqiqiy rezyume bo'lib, unda siz o'zingizning ish tajribangiz, kasbiy mahoratingiz va ta'lim haqidagi ma'lumotlaringizni ko'rsatasiz. Tarmoqdan asosiy foydalanish bepul, ammo potentsial ish beruvchi yoki xodim uchun kasbiy va martaba o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadigan pullik premium hisoblari ham mavjud.

“Dunyoda 20 dan ortiq yirik ijtimoiy tarmoqlar mavjud. Ularning 13 tasida 100 milliondan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan. Ushbu xizmatlarda odamlar o'z sahifalarini yaratadilar, do'stlar qo'shadilar, yangi odamlar bilan tanishadilar, suhbatlashadilar, video tomosha qiladilar va musiqa tinglaydilar.¹

Dunyodagi eng mashhur 10 ta ijtimoiy tarmoqlar quyidagilar:

1. Facebook - AQSh, 1,2 milliard akkaunt
2. Google+ - AQSh, 540 million akkaunt
3. Twitter - AQSh, 500 million akkaunt
4. Sina Vaybo - Xitoy, 500 million hisob
5. Odnoklassniki - Rossiya, 205 million akkaunt
6. Vkontakte - Rossiya, 200 million akkaunt
7. LinkedIn - AQSh, 187 million akkaunt
8. Badoo - Buyuk Britaniya, 181 million akkaunt
9. Tumblr - AQSh, 110 million hisob
10. Tagged - AQSh, 100 million hisob



alamy

Image ID: MW12D6
www.alamy.com



Yuqoridagi telegram ijtimoiy tarmog'idagi 3974ta a'zoga ega bo'lgan "Ahli ilm guruhidagi chatdan psixolingvistik tahlil qilish maqsadida bir lavha olindi. Bu chatga e'tibor qaratadigan bo'lsak guruh nomiga mos bo'lmagan uslublarga ko'zimiz tushadi. Bu chatga tahlil uchun quyidagicha yondashdik.

1. Yozishmalarda imloviy xatoliklar soni talaygina,
2. Chatda turli xil qochirim, kinoya kabi ko'chimlardan foydalanilgani uchun mazmun chetdan qaragan kishi uchun g'aliz.
3. Eng asosiysi bu chatlar mualliflarining yosh xususiyatlari hamda mentalitit kabi tushunchalar chatda namoyon bo'lib turibdi.
4. Vulgarizmga xos bo'lgan holatlar ham ko'zga tashlanadi. Bu holatni tahlil qilishda neyrolingvistikaga murojaat qilish kerak.
5. Qo'shimchalar qo'llash bilan bo'g'liq savodxonlikning yetarli emasligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlil usullari yordamida chat qatnashchilarining ruhiy holatini hisobga olgan holda psixolingvistik ekspertiza jarayonini boshlaymiz.

Galyashina o'z fikrlarini umumlashtirar ekan, "har qanday nutq mahsuloti lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi."²

1. Birinchi imloviy xatolik: 2ta otib ketdi. Bu jumlada o' o'rniga o tovushi qo'llangan. Bu holatdan kelib chiqib telegram foydalanuvchisi biroz shoshqalolroq va e'tiborsizroq, shuningdek biror ishga katta bir mas'uliyat bilan yondashmaydigan shaxs deb xulosa qildik. Ikkinchi imloviy xatolik: Kechga oshga utamiz. Bu jumlada ham o' tovushi o'rnida o tovushi qo'llangan. Bu jumla egasiga imloviy savodxonligi yuqori emas degan xulasani berdik.

2. Birinchi jumla: Sultonovadan o'tsam bitta bermoqchi edim. Bu jumlada ko'chimning metonimiya va metafora ya'ni aloqadorlik, o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi turlaridan foydalanilgan. Jumlada "bahsdan" so'z tushish holati va osh "bermoqchi edim" o'xshatish holati kuzatilgan.

3. Chat ishtirokchilari 18 yoshdan oshmagan shaxslar ekanligi yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdi. Xususan, g'alaba uchun kurashish hech bir yozishmani beetibor qoldirmaslik

holatlarini fikrimizning yorqin dalilidir. Aynan “ 2ta otib ketdi” jumlasini kirill alifbosi asosida yozilganligi dastlab, chat muallifining kirill alifbosida tehsil olgan shaxs ya'ni kata yoshli kishi sifatida namoyon qiladi, ammo glavniy suratlariga qaraydigan bo'lsak bu shaxsni hali balog'at yoshidagi qiz bola ekanligini va rus tiliga ixtisoslashgan maktabda tahsil olganligini, dunyoqarashi o'zbeklar mentalititiga butunlay mos emasligini ko'rsatadi.

4. OKK so'zining qo'llanilishi yana e'tiborimizni tortdi. Bu ingliz tiliga xos so'z bo'lib, bu so'zni yozishda ham imloviy xatolika qo'l qo'yilgan. Bu chatda ikki tilga oid so'zlardan foydanilgan va xatolikka yo'l qo'yilgan. Bu holat fanda Ikki yoki undan ortiq tillarni o'zlashtirishga urinish natijasida miyaning shikastlanish holati sifatida qaralib, bu holat insonning og'zaki va yozma nutqida o'z salbiy jihatlarini namoyon qiladi. Neyrolingvistika sohasi vakillari, aynan, shu kabi jarayonlar bilan shug'ullanadi.

5. “Bizdagi sini toping”. Bu jumlada egalik va kelishik shakllari asosdan ajratilgan holda yozilgan. Bu yozishma muallifi o'zbek tili grammatikasidan yaxshi xabardor emasligini ko'rsatadi.

Neyrolingvistika psixologiya, tilshunoslik sohalarining hamroligi asosida yuzaga kelgan yangi yo'nalish hisoblanadi. Neyronlar ma'lumotni olib miyaga uzatadi, miya ma'lumotlarni qayta ishlab ularni joylashtiradi. Bu jarayon inson tanasi bilan neyronlarning mutanosiblik harakatining natijasidir.

NLP ning 4 ustuni mavjud[5;1143]:1. Munosabat:Bunda Oksford va Vebster lug'atlarida “munosabat” so'ziga berilgan ta'rifga tayanadigan bo'lsak, o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro munosabat, yoki uyg'unlik bo'lsa, dars jarayoni osonroq kechadi. Chunki bu orqali o'quvchi va o'qituvchi orasidagi o'xshashliklar, yaqinlik ko'zga tashlanib, farqli tomonlari kamaya boradi[4;625]. Bu yaqin munosabat esa o'quvchining ong ostida, ya'ni o'zi anglamagan holda sodir bo'ladi. Natijada, o'qituvchi bu vaziyatdan katta muvaffaqiyatga yetaklovchi samarali dars muhitini yaratishda foydalanishi mumkin[8;12]. 2. Natijani o'ylash: Bu ustun o'quvchining maqsadlari bilan bog'lanadi. Buning uchun o'quvchilar nima xohlayotganlariniani bilishlari, ya'ni aniq maqsad qo'ya olishlari lozim. Chunki aniqlik muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. 3. Sezgi idroki: Biz atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni sezgi organlarimiz orqali his qilamiz: eshitamiz, ko'ramiz, his qilamiz. Sezgi idroki bizga atrofimizda bo'layotgan voqealardan boxabar bo'lishga ko'maklashadi. NLP nazariyasida, o'quvchi unga nima muvaffaqiyatli yoki yo'qligini bilib-bilmay bajaradi. Agar u muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, u natijaga erishishi uchun qaysi sezgi yaxshi ishlash-ishlamasligini aniq idrok eta olishi lozim. 4. Xulq-atvor moslashuvchanligi:Inson hayotda turli kutilmagan vaziyatlarga ham tushib qolishi mumkin. Shunda u moslashuvchanlikni o'ziga singdirgan bo'lsa, o'zi uchun vaziyatni o'zgartira oladi va noqulaylikdan natija sari qadam qo'yadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hedayat N, et al. “Neuro-linguistic programming and its implications for English language learners and teachers”, 2020, Theory and practice in language studies, 10(9), 1141-11476.
- Kushwaha S. “Neuro-linguistic programming in English teachingclassroom”, 2021, Shiksha Shodh Manthan, A half-yearly international peer-reviewed journal of education, 7(1), 141-145.
2. 1447. Pourbahreini, F.“The Effect of Neuro-Linguistic Programming Technique on Enhancing Grammatical Knowledge of Iranian EFL Learners atIntermediate

Level", 2015, English for Specific Purposes World, ISSN, 1682-3257, 44(16), 1-17.8. Silva, D. "Contributions of neurolinguistic programming in school education. EC Neurology", 2017, 1, 10-13. <https://www.econicon.com/ecne/si/ECNE-01-SI-04.pdf>.9.

3. Isakulova N. METHODS OF USING COURSES OF OPEN EDUCATION IN IMPROVING MEDIA OF COMPETENCE OF STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH) //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. –2019. –T. 7. –No. 5..

